



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDENDLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedov Latayibxon

Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-8478-5571

tayyibuzb69@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatining nazariy asoslari, foydani taqsimlash mexanizmi va dividend to'lovlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari tahlil qilingan. Dividend siyosatining moliyaviy barqarorlik, investitsion salohiyat va kapital tuzilmasiga ta'siri asoslab berilgan. Foydani taqsimlashda ishtirok etuvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi va amaliyotdagi muammolar ko'rib chiqilgan. Talab qilib olinmagan dividendlarni hisobga olish bo'yicha alohida ishchi hisobvarag'ini joriy etish taklif etilgan. Natijalar dividend siyosatini korxona moliyaviy holati bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, dividend siyosati, foydani taqsimlash, dividendlar hisobi, taqsimlanmagan foyda, moliyaviy barqarorlik, buxgalteriya hisobvaraqlari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ДИВИДЕНДОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Ахмедов Латайибхон

Университет менеджмента и современных технологий

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы дивидендной политики в акционерных обществах, механизм распределения прибыли и вопросы отражения дивидендных выплат в бухгалтерском учете. Обосновано влияние дивидендной политики на финансовую устойчивость, инвестиционный потенциал и структуру капитала компании. Рассмотрена корреспонденция счетов, участвующих в процессе распределения прибыли, а также существующие практические проблемы учета дивидендов. Предложено внедрение отдельного рабочего счета для учета невостребованных дивидендов. Полученные результаты подтверждают необходимость согласования дивидендной политики с реальным финансовым состоянием предприятия.

Ключевые слова: акционерное общество, дивидендная политика, распределение прибыли, учет дивидендов, нераспределенная прибыль, финансовая устойчивость, бухгалтерские счета.

IMPROVEMENT OF DIVIDEND ACCOUNTING IN JOINT-STOCK COMPANIES

Akhmedov Latayibkhon

University of Management and Future Technologies

Abstract. *The article analyzes the theoretical foundations of dividend policy in joint-stock companies, the mechanism of profit distribution, and the issues of reflecting dividend payments in accounting. The impact of dividend policy on financial stability, investment potential, and capital structure is substantiated. The correspondence of accounts involved in profit distribution and practical problems of dividend accounting are examined. The introduction of a separate working account for recording unclaimed dividends is proposed. The results confirm the necessity of aligning dividend policy with the actual financial condition of the enterprise.*

Keywords: *joint-stock company, dividend policy, profit distribution, dividend accounting, retained earnings, financial stability, accounting accounts.*

Kirish.

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son hamda 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son qonunlari bilan belgilangan huquqiy-me'yoriy asoslar doirasida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, korporativ boshqaruv institutlarining rivojlanishi va kapital bozorlarining faol integratsiyalashuvi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali, sof foyda va dividendlar bilan bog'liq buxgalteriya hisobini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (IFRS) talablariga muvofiqlikni ta'minlash nafaqat hisobot axborotining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshiradi, balki investorlar ishonchini mustahkamlash hamda korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dividendlar bo'yicha hisob tizimining ishonchli, to'liq va aniqlik tamoyillari asosida yuritilishi aksiyadorlik jamiyatida shakllantirilgan dividend siyosatining samaradorligi va uning korporativ moliya strategiyasi bilan uyg'unligini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Dividend siyosati aksiyadorlar manfaatlarini qondirish, reinvestitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda korxona qiymatini maksimal darajada oshirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi murakkab moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Jahon ilmiy adabiyotlarida dividend siyosatining mazmuni va uning investitsion jozibadorlikka ta'siri bo'yicha Modilyani-Millerning neytrallik konsepsiyasi, "signalling" nazariyasi, agentlik xarajatlari yondashuvi kabi turli nazariy qarashlar mavjud bo'lib, ularning har biri dividend to'lovlarining iqtisodiy mohiyatini turlicha izohlaydi. Mazkur nazariy yondashuvlarning xilma-xilligi dividend siyosatini amaliyotda shakllantirish va baholash jarayonlarida muayyan metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bilan birga, foydani taqsimlashning optimal nisbatlarini aniqlash, dividend to'lovlarining barqarorligini ta'minlash, dividendlar bo'yicha buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalar va kapital tuzilmasiga ta'sirini baholash masalalari hozirgi kunda ham yetarlicha chuqur ilmiy asoslangan yechimga ega emas. O'zbekiston sharoitida esa dividendlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, milliy hisob tizimining institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligi bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini shakllantirish va dividend to'lovlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari korporativ moliya nazariyasi va amaliyotida

muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo foydani taqsimlash mexanizmlari, kapitalni saqlash va aksiyadorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilmiy adabiyotlarda turli nazariy va institutsional yondashuvlar asosida izohlanadi.

Dividend siyosatining kompaniya qiymatiga ta'siri masalasini Abalakina va Abalakin (2013) o'z tadqiqotlarida chuqur tahlil qilgan bo'lib, ular dividend to'lovlarini investorlar uchun muhim axborot signali sifatida talqin etadilar. Mualliflarning fikricha, dividendlarning barqaror va izchil to'lanishi kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risida bozorga ijobiy signal beradi hamda aksiyalar qiymatining oshishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv dividend siyosatini kompaniya bozor bahosini shakllantiruvchi strategik omil sifatida ko'rsatadi.

Dividend siyosatining huquqiy-institutsional asoslari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2024) hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida (2014) belgilab berilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali aksiyalarga bo'lingan tijorat tashkiloti sifatida e'tirof etilib, aksiyalar aksiyadorlarning mulkiy va boshqaruv huquqlarini tasdiqlovchi moliyaviy instrument sifatida qaraladi. Ushbu huquqiy normalar dividend siyosatini shakllantirishda aksiyadorlarning daromad olish huquqini ta'minlash bilan bir qatorda, jamiyatning moliyaviy barqarorligini saqlash zaruratini ham belgilaydi.

Dividendlar bilan bog'liq hisob jarayonlarini yuritish masalalari esa "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (2016) bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda dividend to'lovlarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning asosiy tamoyillari belgilangan bo'lib, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan talablar ilgari suriladi. Bu esa dividend siyosatini faqat moliyaviy boshqaruv vositasi emas, balki hisob siyosatining muhim tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Elmirzaev (2016) o'z tadqiqotida dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlarini tahlil qilib, dividendlarni rejalashtirish va to'lash jarayonlari kompaniyaning umumiy moliyaviy strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Muallif dividend siyosatini foydani taqsimlash mexanizmi sifatida emas, balki investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi va kapital tuzilmasini optimallashtiruvchi vosita sifatida baholaydi.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da (2000) aksiyadorlik jamiyati va dividend tushunchalariga berilgan izohlar ularning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, dividend aksiyadorlik kapitalidan foydalanish natijasida olinadigan daromad shakli sifatida ta'riflanadi va bu tushuncha dividend siyosatini iqtisodiy munosabatlar tizimining ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Empirik tadqiqotlar doirasida Temirov (2023) O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatining aksiyalar narxiga ta'sirini tahlil qilib, dividend to'lovlari va bozor qiymati o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini asoslab beradi. Muallifning empirik natijalari dividend siyosati investorlar xulq-atvoriga va bozor konyunkturasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Shermuxamedov (n.d.) dividend siyosatini ichki moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, haddan tashqari yuqori dividend to'lovlari foydani kapitalizatsiya qilish imkoniyatlarini cheklab, korxonaning uzoq muddatli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois dividend siyosati real moliyaviy imkoniyatlar va strategik investitsion ehtiyojlarga mos holda shakllantirilishi lozim.

Shomansurova (n.d.) dividend siyosatini moliyaviy boshqaruv tizimining institutsional elementi sifatida tahlil qilib, uning korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishdagi rolini asoslab beradi. Muallif dividend siyosatini aksiyadorlar va menejment manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rsatadi.

Dividend siyosatini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari Botirov va Bafoeva (2022) tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, ular foydani taqsimlash va dividend to'lovlarini

hisobda aks ettirishdagi muammolarni tahlil qiladilar. Mualliflar dividendlar hisobini takomillashtirish moliyaviy natijalarning aniqligi va ishonchligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

To'raev va To'raeva (2025) aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatini shakllantirish xususiyatlarini o'rganib, dividend siyosati va foyda taqsimlash bilan bog'liq hisobiy yondashuvlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadilar. Ularning tadqiqotlari dividend siyosati va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash, kapitalni saqlash va investitsion rivojlanishni ta'minlash o'rtasidagi murakkab muvozanatni ifodalovchi strategik moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, dividend siyosatini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari yetarli darajada tizimli va kompleks tadqiq etilmagan bo'lib, mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning metodologik asosini dividend siyosati va dividend to'lovlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida amaliy ma'lumotlarni taqqoslash, guruhlash va tahliliy usullardan foydalanilib, shu asosda ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida "Farg'onaazot" AJning 2023–2024-yillar moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona foydaliligi, kapital holati hamda dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlil natijalari jamiyat moliyaviy natijalari dinamikasida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Jamiyatning sof foydasi 2023-yilda 229,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 76,2 mlrd so'mgacha kamaygan. Shunday qilib, sof foyda bir yil davomida qariyb 66,7 foizga qisqargan. Mazkur holat korxona moliyaviy samaradorligi pasayganini hamda foyda shakllanish jarayonida tizimli muammolar mavjudligini ifodalaydi.

Shu bilan birga, jamiyatning sotishdan olingan sof tushumi sezilarli o'sish ko'rsatmagan, ya'ni daromadlar hajmi nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Biroq 2024-yilda ishlab chiqarish tannarxining keskin oshishi kuzatilgan. Bu esa yalpi foyda o'sishini cheklab, asosiy faoliyat bosqichidayoq rentabellik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Demak, foyda qisqarishining asosiy sababi daromadlar emas, balki xarajatlarning ortishi bilan bog'liq.

Moliyaviy natijalar tarkibi chuqurroq o'rganilganda, davr xarajatlari hajmi ham 2024-yilda sezilarli darajada oshgani aniqlanadi. Natijada asosiy faoliyatdan olingan foyda keskin kamaygan, bu esa soliq to'lashgacha bo'lgan foyda hamda yakuniy sof foydaning pasayishiga olib kelgan. Shunday qilib, moliyaviy ko'rsatkichlar yomonlashuvi, avvalo, xarajatlar boshqaruvi samaradorligining pasayishi bilan izohlanadi.

Balans ko'rsatkichlariga ko'ra, "Farg'onaazot" AJ aktivlari 2024-yilda 2 079,5 mlrd so'mga yetgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. Jami kapital ham 1 626,8 mlrd so'mgacha oshgan. Shu bilan birga, majburiyatlar hajmi nisbatan barqaror saqlanib qolgan hamda aktivlar tarkibida o'z kapitali ulushi yuqori darajada qolmoqda. Bu jamiyatning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati yetarli darajada ekanini ko'rsatadi.

Biroq taqsimlanmagan foyda dinamikasi salbiy tendensiyaning namoyon etmoqda. Sof foydaning keskin qisqarishi natijasida taqsimlanmagan foyda hajmiga bosim kuchaygan. Mazkur holat dividend to'lovlari hajmini belgilashda ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki dividendlarni yuqori darajada saqlab qolish investitsion imkoniyatlar va ichki moliyalashtirish manbalarini qisqartirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, "Farg'onaazot" AJda dividend siyosati korxona foydaliligining real holati bilan uzviy bog'langan holda shakllantirilishi zarur. Foyda qisqarib borayotgan

sharoitda dividend to'lovlarini oshirish moliyaviy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin. Demak, jamiyatda foydani taqsimlash siyosatini ishlab chiqishda investitsion ehtiyojlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish talablari hamda aylanma mablag'lar yetarliligi o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi yondashuv ustuvor bo'lishi lozim.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Farg'onaazot" AJda aktivlar va kapital hajmi o'sib borayotgan bo'lsa-da, foydalilik ko'rsatkichlari pasaymoqda. Bu esa korxonada dividend siyosatini qayta ko'rib chiqish, xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda ishlab chiqarish rentabelligini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

1-jadval

"Farg'ona Azot" AJ o'z kapitali harakati tahlili (2020–2024), mlrd so'm

Balans elementlari	Yillar					Tafovut 2024 y 2020 y. nisbatan	
	2020	2021	2022	2023	2024	mlrd. so'm	% da
Ustav kapitali	83,5	83,5	83,5	83,5	83,5	0,00	0,00
Rezerv kapitali	530,1	608,5	728,0	730,3	842,7	312,6	58,97
Taqsimlanmagan foyda (qoplan-magan zarar)	346,9	496,7	205,4	386,6	302,9	-44,0	-12,68
Maqsadli tushumlar	360,5	360,5	360,5	360,5	360,5	0,00	0,00
Kelgusi davr xarajatlari va to'lov-lar uchun zahiralar	-	38,3	34,7	34,2	37,2	37,2	-
Jami kapital	1 321,0	1 587,5	1 412,1	1595,1	1626,8	305,8	23,15

2020–2024 yillarda "Farg'ona Azot" AJning jami o'z kapitali 1 321,0 mlrd so'mdan 1 626,8 mlrd so'mga oshib, 305,8 mlrd so'mga (23,15%) ko'paygan. Kapital o'sishining asosiy drayveri rezerv kapitali bo'lib, u 312,6 mlrd so'mga (58,97%) oshgani jamiyatda moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish va ehtiyotkorlik (risklarni qoplash) siyosati ustuvor bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, taqsimlanmagan foydaning 44,0 mlrd so'mga (-12,68%) kamayishi dividend bazasi (foydani qayta investitsiya qilish yoki taqsimlash imkoniyati) bo'yicha bosim kuchayganini anglatadi. Ustav kapitali va maqsadli tushumlarning o'zgarmagani kapitaldagi ijobiy siljishlar asosan ichki moliyaviy manbalar hisobidan shakllanganini tasdiqlaydi. Umuman, kapital tuzilmasida "rezervlash ulushi" ortib, "taqsimlanmagan foyda ulushi" qisqargani dividend siyosatini foyda dinamikasi va investitsion ehtiyojlar bilan yanada muvofiqlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydani taqsimlash tartibi hamda ushbu jarayonlarni buxgalteriya hisobvaraqlarida to'g'ri va aniq aks ettirish korxona moliyaviy hisob tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Taqsimlanmagan foyda korxonada shakllangan va jamg'arilib borayotgan moliyaviy resurslarni ifodalaydi hamda mulkdorlar qaroriga muvofiq ustav kapitali tarkibiga kiritilishi mumkin.

Korxonaning turli yillardagi faoliyati natijalari, shuningdek hisobot davrida vujudga kelgan taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar miqdori, ularning holati va harakati haqidagi ma'lumotlar maxsus buxgalteriya hisobvaraqlari orqali umumlashtiriladi. Bunday axborotni tizimlashtirish 8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)" hamda 8720 "Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)" hisobvaraqlarida amalga oshiriladi.

8710 hisobvarag'i hisobot davri mobaynida korxona faoliyati natijasida shakllangan taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zararni hisobga olishga mo'ljallangan. Hisobot davri yakunida sof foyda summasi yakuniy yozuv orqali ushbu hisobvaraq kreditiga o'tkaziladi, zarar yuzaga kelgan holatda esa uning summasi mazkur hisobvaraq debeti orqali 9900 "Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi hisobvaraqlar" bilan bog'liq tarzda hisobdan chiqariladi.

Foydani taqsimlash jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirishda ishtirok etuvchi hisobvaraqlarning boshqa hisobvaraqlar bilan o'zaro bog'liqligi 2-jadvalda tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

2-jadvalda foydani taqsimlash bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning korrespondensiyasi tartibli ravishda yoritilgan.

2-jadval.

Dividend to'lovlari va foydani taqsimlash bo'yicha xo'jalik muomalalarining hisobda aks ettirilishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1.	Hisobot davrida aniqlangan yakuniy moliyaviy natija taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobvarag'iga o'tkazildi: foyda summasi zarar summasi	9910 8710	8710 9910
2.	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi dividend to'lashga yo'naltirildi	8710	6610
3.	Talab qilib olinmagan dividend summasiga	6610	6611
4.	Taqsimlanmagan foyda rezerv kapitalini shakllantirishga yo'naltirildi	8710	8520
5.	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi qoldig'i jamg'arilgan foydaga o'tkazildi: Foyda Zarar	8710 8720	8720 8710

Amalda foydani taqsimlash jarayonlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilsa-da, dividend to'lovlarining muddatlari va tartibiga barcha aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan to'liq rioya etilmayotgan holatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, xo'jalik amaliyotida o'z vaqtida talab qilib olinmagan dividend summolari mavjud bo'lib, ularni buxgalteriya hisobvaraqlarida to'g'ri aks ettirish masalasida muayyan tashkiliy va metodik muammolar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 51-moddasiga muvofiq, aksiyador yoki uning qonuniy vorisi tomonidan uch yil mobaynida talab qilinmagan dividend summolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qolishi mumkin. Biroq amaliyotda dividendlarga oid barcha majburiyatlar 6610 "To'lanadigan dividendlar" hisobvarag'ida umumlashtirib yuritilayotgani natijasida talab qilib olinmagan dividendlar bilan bog'liq axborotning aniqligi pasaymoqda.

Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida hisobvaraqlar rejasiga 6611 "Talab qilib olinmagan dividendlar" nomli alohida ishchi hisobvarag'ini joriy etish hamda talab qilinmagan dividend summalarini aynan ushbu hisobvaraqda yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu esa dividendlar bo'yicha majburiyatlar tarkibini aniqlash, axborot shaffofligini oshirish va moliyaviy hisobot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotda dividend siyosatining mazmuni va uning kompaniyalarning investitsion jozibadorligiga ta'siriga oid yondashuvlar turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Dividend siyosatining eng maqbul modelini shakllantirish, foydani taqsimlash proporsiyalarini belgilash hamda dividend to'lovlarining barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq ayrim masalalar hozirga qadar to'liq ilmiy-amaliy yechimga ega emas. Shu nuqtai

nazardan, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatlarining hisob siyosatining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 51-moddasiga muvofiq, aksiyador yoki uning qonuniy huquqiy vorisi tomonidan uch yil mobaynida talab qilinmagan dividend summolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qolishi mumkin. Mazkur me'yoriy talabdan kelib chiqib, "talab qilib olinmagan dividendlar" summalarini buxgalteriya hisobida alohida ishchi hisobvaraqlar orqali yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa dividend majburiyatlarini aniq hisobga olish, axborot shaffofligini ta'minlash va moliyaviy hisobot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар / Литература / Reference:

Abalakina, T. V., & Abalakin, A. A. (2013). *Dividendnaya politika i yeyo vliyaniye na stoimost kompanii. Internet-zhurnal "Naukovedenie"*, №5.

Botirov A.A.; Bafoeva Sh.Z. (2022) *Ajlarda dividend siyosatini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari. (maqola muallifi(lar)i) — Ajlarda dividendlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish (foydani taqsimlash va dividend to'lovlari hisobda aks ettirish).* <https://itm.uz/wp-content/uploads/2022/04/2.%D0%91%D0%BE%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2-%D0%90.%D0%90.-3.20.pdf>

Elmirzaev, S. (2016). *Dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. Xalqaro moliya va hisob, №2, Toshkent.*

Ensiklopediya (2000). *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild, 190-bet.*

Kodeks (2024) *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.*

Qonun (2014) *O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-370.*

Qonun (2016) *O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-404.*

Shermuxamedov A. (n.d.) *dividend siyosatini rivojlantirish tamoyillari, barqarorlik muammolari va investitsion imkoniyatlar bilan moslik masalasi.* <https://cajem-science.org/index.php/journal/article/view/22>

Shomansurova Z. (n.d.) *Акциядорлик жамиятларида dividend siyosatining moliyaviy boshqaruvdagi o'rni va ahamiyati (institutsional yondashuv).* <https://cajem-science.org/index.php/journal/article/view/22>

Temirov A. (2023) *O'zbekistonda AJ dividend siyosatining aksiyalar narxiga ta'siri (empirik yondashuv).* https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/39/e3sconf_transsiberia2023_08014/e3sconf_transsiberia2023_08014.html

To'raev A.N.; To'raeva M.G. (2025) *Ajlarda hisob siyosatini shakllantirish xususiyatlari (dividend siyosati va foyda taqsimlash bilan bog'liq hisobiy yondashuvlar uchun nazariy baza).* <https://cdn.uza.uz/2025/11/18/10/42/ZHQduyiq2rSVuDuREj5HIqDPNJ6sBVn.pdf>